



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI




TOSHKENT TIBBIY AKADEMIYASI

PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH VA  
QAYTA TAYYORLASH MARKAZI

Oxunov A.O., Bobokulova S.A.

O'PKA VA PLEVRANING  
YIRINGLI KASALLIKLARI VA  
ULARNING COVID-19  
O'TKAZGAN BEMORLarda  
KECHISHI HUSUSIYATLARI

O'quv-uslubiy qo'llanma



Toshkent - 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**PEDAGOG XODIMLAR MALAKASINI OSHIRISH VA  
QAYTA TAYYORLASH MARKAZI**

**1-UMUMIY VA BOLALAR JARROHLIGI KAFEDRASI**

**O'PKA VA PLEVVRANING YIRINGLI KASALLIKLARI VA  
ULARNING COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLarda KECHISHI  
HUSUSIYATLARI**

O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent 2022



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

"TASDIQLAYMAN"

O'z R SSV Fan va ta'lif  
boshqarmasi boshlig'i  
O'S. Ismailov  
2022 y "10" lek /or/  
No 1 bayonnomma



"KELISHILDI"

O'z R SSVning Tibbiy  
ta'lifni rivojlantirish  
markazi direktori v.v.b.  
M.R. Eshpolatova  
2022 y "10" lek /mar/  
No 1 bayonnomma



O'PKA VA PLEVVRANING YIRINGLI KASALLIKLARI  
VA ULARNING COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLARDA  
KECHISHI HUSUSIYATLARI

Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari yuqori kurs talabalari  
uchun o'quv-uslubiy qo'llanma

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGINING  
TIBBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH  
MARKAZI TOSHKENT  
RO'YBATGA OLINDI

20 yanvar 2022

Toshkent - 2022

**Oxunov A.O., Bobokulova S.A.** // “O’pka va plevraning yiringli kasalliklari va ularning covid-19 o’tkazgan bemorlarda kechishi hususiyatlari”: O’quv-uslubiy qo’llanma// MChJ «TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI» – 2022 й. 48 bet.

**Tuzuvchilar:**

**OXUNOV Alisher Oripovich** – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi “1-sonli umumiy va bolalar jarrohligi” kafedrasi mudiri, O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni saqlash a’lochisi, “2019 yilning yang yaxshi professori” mukofoti laureati, Amerika (SIS) va Yevropa (SIS-E) jarrohlik infeksiyalari jamiyatlari a’zosi,

**BOBOKULOVA Shoxista Abdualimovna** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-sonli Umumiy va bolalar jarrohligi kafedrasi assistenti

**Taqrizchilar:**

**XAKIMOV M.Sh.** – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi Davolash fakultetining Gospital jarrohlik kafedrasi mudiri;

**BAYMAKOV S.R.** – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent Davlat Stomatologiya instituti Umumiy va harbiy dala jarrohligi kafedrasi mudiri;

Ushbu O’quv-uslubiy qo’llanma Toshkent tibbiyot akademiyasi Markaziy uslubiy hay’atida ko’rib chiqilgan va muhokama qilingan

Yig‘ilish bayonnomasi № \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2021 y.

Ushbu O’quv-uslubiy qo’llanma Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy Kengashida ko’rib chiqilgan va muhokama qilingan

Yig‘ilish bayonnomasi № \_\_\_\_\_ «\_\_\_\_» \_\_\_\_ 2021 y.

© Oxunov A.O., Bobokulova S.A.

© OOO«TIBBIYOT NASHRIYOTI MATBAA UYI». 2022

## MUNDARIJA

KIRISH .....	6
O'PKA VA PLEVRANING YIRINGLI KASALLIKLARI VA ULARNING COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLARDA KECHISHI HUSUSIYATLARI ...	7
Patogenez .....	8
COVID-19 ning yengil, o'rtacha va og'ir shakllari farqlanadi. ....	9
Klinik belgilari .....	10
Davolash tamoyillari.....	11
O'tkir o'pka abscessi.....	15
Yuzaga kelish yo'llari, rivojlanish mexanizmlari .....	15
Klinik patofiziologiya. ....	15
Klinik kechishi va tashxisoti. ....	16
O'tkir o'pka yiringlashining asoratlari. ....	17
Tashxisot va differensial tashxisot. ....	18
Davolash yondashuvlari tamoyillari, jarrohlik davolashga ko'rsatmalar, aralashuv turlari .....	19
Operasiyaga (operativ davoga) ko'rsatma. ....	20
Surunkali o'pka abscesslari. ....	22
Kelib chiqish yo'llari.....	23
Klinik kechishi va tashxisoti.....	24
Differensial diagnostika. ....	25
O'tkir plevra empiyemasi va piopnevmotoraks.....	28
Empiyemalar tasnifi .....	28
Epidemiologiya .....	29
Klinik patofiziologiya. ....	30
O'tkir empiyemani davolash: umumiy tamoyillar, jarrohlik yo'li bilan davolash uchun ko'rsatmalar, operasiyalar turlari. ....	33
Surunkali plevra empiyemasi.....	35
Surunkali empiyemaning klinik kechishi .....	36
O'ZLASHTIRISHNI NAZORAT QILISH UCHUN TESTLAR .....	39
Vaziyatli masalalar.....	42
ADABIYOTLAR.....	46

## KIRISH

2019 yilning oxirida Xitoy Xalq Respublikasida (XXR), epidyemiologik markaz - Uxan shahrida (Xubey provinsiyasi) yangi koronavirus infeksiyasining tarqalishi kuzatildi. 2020 yil 11 fevral kuni Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) yangi koronavirus keltirib chiqargan infeksiyaning rasmiy nomini – COVID-19 (“Coronavirus disease 2019”) deb belgiladi. 2020 yil 11 fevral kuni Viruslar taksonomiyası bo'yicha Xalqaro qo'mita infeksiya qo'zg'atuvchisiga – SARS-CoV-2 degan rasmiy nom berdi.

Yiringli o'pka kasalliklari tashxis qo'yishning qiyinligi va bermorlar o'lim darajasining yuqoriligi tufayli, pulmonologianing bat afsil o'rganishni talab qiladigan dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Bu bir qator ob'yektiv va sub'yektiv sabablarga, xususan antibiotiklarga chidamli mikrofloraning keng tarqalganligiga ham bog'liq. Bu hatto COVID-19 ning yengil shaklida ham antibiotiklar asossiz ravishda buyurilishi tufayli juda muhim hisoblanadi. Bu, shubhasiz, immuniteti shunday ham pasaygan COVID bermorlariga ta'sir qiladi.

Hozirgi vaqtida SARS-CoV-2 infeksiyasidan keyin yoki infeksiya paytida o'pkaning yiringli asoratlari rivojlanishining aniq mexanizmi haqidagi savol ochiqligicha qolmoqda. O'pka absessining klinik va rentgenologik belgilari ko'pincha pnevmoniya (zotiljam) belgilariiga o'xshaydi, ammo antibakterial va simptomatik davosi boshqacha bo'ladi. O'pka gangrenasida intoksikasiya sindromining kuchayishi asta-sekin rivojlanishi mumkin, bu esa shifokorning jiddiy kasallikka nisbatan hushyorligini pasaytiradi va noto'g'ri davolashga olib keladi. Barcha shifokorlar uchun keng qamrovli tashxisot tadbirlarini, asosiy klinik, instrumental va laborator ko'rsatkichlarni bilish zarur hisoblanadi.

### **Maqsad:**

o'pkaning yiringli kasalliklarini tashxislashni, boshqa kasalliklar bilan differensial (farqlovchi) tashxis o'tkazishni va tegishli davolashni buyurishni o'rganish.

### **Vazifalar:**

- o'pkaning yiringli kasalliklari tasnifi va simptomlari bilan tanishish;
- klinik, rentgen va laboratoriya tekshiruvlari natijalariga ko'ra o'pka abssyessi, gangrenoz abscess, o'pka gangrenasini farqlashni o'rganish;
- o'pkaning yiringli kasalliklarini davolashning terapevtik usullarini tanlashni o'rganish;
- jarrohlik usulida davolash uchun ko'rsatmalar va qarshi ko'rsatmalarni baholash;
- kasalliklar prognozini (oqibatini), natijalarini aniqlashni o'rganish.

## **O'PKA VA PLEVVRANING YIRINGLI KASALLIKLARI VA ULARNING COVID-19 O'TKAZGAN BEMORLARDA KECHISHI HUSUSIYATLARI**

Yangi koronavirus SARS-CoV-2 bir zanjirli RNK-saqllovchi virus bo'lib, Coronaviridae oilasiga mansub, Beta-CoV B qatoriga kiradi. Virus ushu oilaning boshqa ba'zi a'zolari (SARS-CoV, MERS-CoV viruslari) kabi II-patogenlik guruhiga tegishli. SARS-CoV-2 koronavirusi taxminan ko'rshapalak koronavirusi va noma'lum koronavirus o'rtasidagi rekombinant virus hisoblanadi. SARS-CoV-2 ning genetik ketma-ketligi SARS-CoV genetik ketma-ketligiga deyarli 79% o'xshaydi. Koronaviruslar uchun asosiy nishon-hujayralar alveolyar epiteliy hujayralari bo'lib, ularning sitoplazmasida virus replikasiyasi sodir bo'ladi. Virionlar yig'ilgandan so'ng ular sitoplazmatik vakuolalarga o'tadi, vakuolalar hujayra membranasiga ko'chadi va ekzozitoz yo'li orqali hujayradan tashqaridagi bo'shliqqa chiqadi. Hujayradan virionlar chiqishidan oldin virus antygrenlarining hujayra yuzasiga ekspressiyasi sodir bo'lmaydi, shuning uchun antitelo hosil bo'lishi va interferon ishlab chiqilishi nisbatan kechroq bo'ladi. Virus ta'sirida sinsitiyning shakllanishi virusning to'qimalarga tez tarqalishiga imkon beradi.

Virusning ta'siri hujayra membranalari o'tkazuvchanligining oshishiga va o'pkaning interstisial to'qimalariga va alveolalar ichiga albuminga boy suyuqlikning transporti kuchayishiga olib keladi. Bunda surfaktant parchalanadi, bu alveolalarning kollapsiga sabab bo'ladi, gaz almashinuvining keskin buzilishi natijasida o'tkir respirator distress-sindrom rivojlanadi. Bemorning immunosupressiv holati nafas yo'llarining opportunistik bakterial va zamburug'li infeksiyalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Koronavirus infeksiyasi yangi variantining eng keng tarqalgan klinik ko'rinishi ikki tomonlama pnevmoniya (virusli diffuz alveolyar shikastlanish mikroangiopatiya bilan) hisoblanadi; bemorlarning 3-4%da o'tkir respirator distress sindromi (O'RDS) qayd etilgan. Ba'zi bemorlarda tromboz va tromboemboliya bilan giperkoagulyasion sindrom rivojlanadi, boshqa a'zolar va tizimlar ham zararlanadi (markaziy asab tizimi, miokard, buyraklar, jigar, oshqozon-ichak trakti, endokrin va immun tizimlar), sepsis va septik shok rivojlanishi mumkin. COVID-19 ning yengil kechishidagi morfologik o'zgarishlarning tabiatи noma'lum. Klinik simptomlarni tahlil qilish asosida virus hiqildoq epiteliysiga, nafas yo'llarining kiprikli epiteliysiga, I va II tipdagи alveolositolarga tropizmini (joylashib olishini) taxmin qilish mumkin.

COVID-19 ning kritik shakli sitokin bo'ronining bir turi bo'lib, uning namoyon bo'lishi birlamchi va ikkilamchi gemofagositar limfogistiositoz (GLG) yoki makrofag faollashuvi sindromining (MFS) kyechishiga o'xshaydi. COVID-19 ning kritik kyechishida tug'ma va orttirilgan (Th1- va Th17-tipli) immunitetning

patologik faollahushi, IL1, IL2, IL6, IL7, IL8, IL9, IL10, IL12, IL17, IL18, granulositar koloniyani stimullovchi omil (G-KSO), granulositar-makrofagal koloniyani stimullovchi omil (GM-KSO), o'sma nekrozi omili  $\alpha$  ( $O'NO-\alpha$  ), IFN $\gamma$ -induksiyalovchi oqsil 10, IFN $\alpha$  va IFN $\beta$ , monositar xemoattaktant oqsil 1 (MXO1), makrofag yallig'lanish oqsili 1 $\alpha$  (MYAO1  $\alpha$ ), shuningdek yallig'lanish markerlari (CRB, ferritin) kabi "yallig'lanish oldi", immunoregulyator, "yallig'lanishga qarshi" sitokinlar va xemokinlar sintezining "disregulyasiysi" rivojlanadi.

COVID-19 tomonidan qo'zg'algan ikkilamchi GLG ning virusli sitokin bo'ronining boshqa shakllaridan farqi shundaki, sitokin bo'ronining ushu variantida nishon organ - o'pka bo'lib, u koronavirusning o'pka to'qimalariga tropizmi bilan bog'liq, shuningdek. qon zardobidagi ferritin darajasining o'rtacha darajada oshishi kuzatiladi. COVID-19da immunitetning giperfaollahushi ko'pincha bronxial va alveolyar limfold to'qimalar bilan qo'shni bo'lgan o'pka parenximasini bilan cheklanadi va O'tkir respirator distress sindromi rivojlanishi bilan kechadi.

COVID-19 pnevmoniyasining erta davrida qonda fibrinogen, mintaqaviy (regional) fibrinolizning me'yoriy darajasi va D-dimerning yuqori darajasi kuzatiladi, bu esa o'tkir makrofag faollahushi sindromi rivojlanishining belgisi hisoblanmaydi. Ushbu jarayonni MFS ga o'xshash o'pka ichi yallig'lanishi deb hisoblash mumkin, u mahalliy tomir disfunksiyasini, shu jumladan mikrotromboz va gemorragiyaning namoyon bo'lishini kuchaytiradi, ya'ni desseminasiyalangan tomir ichi ivishiga qaraganda o'pka tomir ichi koagulopatiyasi ko'proq rivojlanishiga olib keladi. COVID-19 og'ir kechgan bemorlarda vaskulyar endotelial disfunksiya, koagulopatiya, fosfolipidlarga qarshi antitanali trombozlar, katastrofik antifosfolipid sindromini eslatadigan klinik belgilar rivojlanadi. Klinik va patologik o'zgarishlarni DVC va trombotik mikroangiopatiyada (TMA) rivojlanadigan poliorgan trombozdan farqlash qiyin.

Endoteliyning SARS-CoV 2 bilan assosiasiyalangan endotelit deb ataladigan, maxsus virusli va sitokin bo'roni (va keyinchalik - ehtimol autoimmun ham) tufayli kelib chiqqan shikastlanishi - COVID-19 ga xos bo'lgan, asosan o'pka, kamroq hollarda boshqa organlar (miokard, miya va boshqalar) mikroangiopatiyasining asosi hisoblanadi, bundan tashqari, bir qator kuzatuvlarda mahalliy o'pka yoki tizimli produktiv-destruktiv trombovaskulit rivojlanadi.

### Patogenez

COVID-19 patogenezida mikrosirkulyator tomirlarning shikastlanishi muhim rol o'ynaydi. COVID-19 da o'pkaning shikastlanishiga alveolalararo to'siq kapillyarlarining, shuningdek, o'pka arteriyalari va venalarining eritrositlar quyuq

cho'kmasi, yangi fibrin va tromblar shakllanishi kuzatiladigan yaqqol to'laqonligi; qonli balg'am uchun substrat bo'lgan intrabronxial, intrabronxiolyar va intraalveolyar qon ketishlar, shuningdek perivaskulyar qon ketishlar xarakterlidir. Yaqqol namoyon bo'lgan alveolyar-gemorragik sindrom, deyarli gemorragik infarktlarning yuzaga kelishigacha bo'lgan holatlar ko'pchilik kuzatuvalar uchun xarakterli (garchi haqiqiy gemorragik infarktlar ham kam uchramasada).

COVID -19 da inkubasion (yashirin) davr 2 kundan 14 kungacha, o'rtacha 5 kun davom etadi. Taqqoslash uchun, mavsumiy grippning inkubasion davri taxminan 2 kun. COVID-19 ning birinchi simptomlari orasida tana haroratining oshishi 90% hollarda; yo'tal (quruq yoki oz miqdordagi balg'am bilan) 80% hollarda; 20% hollarda ko'krak qafasida siqilish hissi; 55% hollarda hansirash; mialgiya va charchoq (44%); balg'am ajralishi (28%); shuningdek, bosh og'rig'i (8%), qonom balg'am (5%), diareya (3%), ko'ngil aynishi qayd etiladi. Infeksiyaning boshlanishida ushbu simptomlar tana harorati ko'tarilmasdan ham kuzatilishi mumkin.

#### **COVID-19 ning klinik shakllari va namoyon bo'lishi:**

1. Yengil kechadigan o'tkir respirator virusli infeksiya.
2. Nafas yetishmovchiligi kuzatilmaydigan pnevmoniya.
3. O'tkir nafas yetishmovchiligi kuzatiladigan pnevmoniya.
4. O'tkir respirator distress sindromi.
5. Sepsis.
6. Septik (yuqumli-toksyk) shok.

Gipoksemiya ( $\text{SpO}_2$  ning 88%dan kam bo'lishi) 30% dan ko'p bemorlarda uchraydi.

#### **COVID-19 ning yengil, o'rtacha va og'ir shakllari farqlanadi.**

COVID-19 og'ir kechgan bemorlarda kasallikning 1-haftasida pnevmoniya rivojlanadi. O'pkada ikki tomonda ham nam krepitasiyalı, mayda pufakchali xirillashlar eshitiladi. Perkussiyada o'pka tovushining to'mtoqlashishi aniqlanadi. Chuqur nafas olganda xirillash kuchayadi, yo'taldan keyin ular yo'qolmaydi, bemor tanasining holatiga qarab o'zgarmaydi (o'tirish, turish, yotish). Ryentgenografiyada o'pka maydonlarining periferik hududlarida infiltrasiya aniqlanadi. Jarayon rivojlanib ketganda infiltrasiya kuchayadi, zararlangan hududlar ko'payadi, O'tkir respirator distress sindromi qo'shiladi.

Infeksiya rivojlangunda sepsis va yuqumli toksik shok kuzatiladi.

SARSCoV-2 og'ir darajali pnevmoniyasining eng keng tarqalgan sababi nafaqat virusli, balki bakteriyali va zamburug'li, jumladan o'pkaning sun'iy

ventilyasiyasi bilan bog'liq superinfeksiyalar hisoblanadi.

O'pka COVID-19 infeksiyasining o'ziga xos xususiyati – bu o'pkada yallig'lanish o'chog'ining konsolidasiyasi bo'lib, yuqorida aytib o'tilganidek, kasallikdan keyingi uzoq muddatli davrda o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bilan assosiasiyalanadigan o'pkaning yiringli-destruktiv kasalliklari, sepsis yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Bu alveolyar diffuz shikastlanish, intraalveolyar qon ketish, alveolyar arteriolalarning stenozi yoki okklyuziyasi, ularning trombozi va yuqorida aytilganlarning oqibatida hujayra parenximasining nekrozi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'pkaning o'tkir yiringli-destruktiv kasalliklari (O'O'YDK) yuzaga kelishining yana bir omili SARS-CoV pnevmoniyasidan keyin ko'p uchraydigan o'pka fibrozi hisoblanadi.

O'pka SARS-CoV-2 infeksiyasi kyechishining o'ziga xos xususiyati - o'pkadagi yallig'lanish o'chog'ining konsolidasiyasi bo'lib, u SARS-CoV-2 kasalligi bilan og'rib o'tgandan so'ng uzoq muddatli davrda o'lim ko'rsatkichining yuqoriligi bilan assosiasiyalanadigan o'pka absessi va gangrenasi va sepsis hosil bo'lishiga olib kelishi mumkin.

SARSCoV-2 og'ir darajali pnevmoniyasining eng keng tarqalgan sababi nafaqat virusli, balki bakteriyali va zamburug'li, jumladan o'pkaning sun'iy ventilyasiyasi bilan bog'liq superinfeksiyalar hisoblanadi.

SARSCoV-2 infeksiyasi paytida/undan keyin O'O'YDKni standart davolash sxemasi patogenetik omillar tufayli samarasiz bo'ladi. Bu yerda jiddiy muammo – SARSCoV-2 ning yengil shaklida ham antibakterial preparatlarni asossiz qo'llash oqibatida yuzaga keladigan antibakterial chidamlilik paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, O'O'YDKni davolashda qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, infeksiyaning tarqalishiga va natijada bemorlarning o'limiga olib keladi.

### Klinik belgilari

O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari bilan og'rigan bemorlarda klinik belgilari asosan kasallikning tabiatiga, asoratlarning mavjudligiga va ularning shakliga bog'liq. Ulardan asosiyları o'pka to'qimasida yiringli-destruktiv jarayonning o'tkirligi, og'irligi va tarqalishi, o'pka ateletkazining mavjudligi va darajasi, plevra bo'shlig'ining zararlanish hajmi hisoblanadi.

O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari bilan og'rigan bemorlar holating og'irlilik darajasi va jarayon dinamikasini ob'yektiv baholash uchun Yu.N.Levashov va L.I.Kobrin modifikasiyasi asosida G.I.Marchuk va boshq. tomonidan ishlab chiqilgan, ikkita integral ko'rsatkichlarni – og'irlilik darajasining laborator (Pl) va klinik (Pk) indekslarini hisoblashga asoslangan miqdoriy usuldan foydalilanadi. O'O'YDK da klinik-rentgenologik ma'lumotlarni baholash

(ballarda) biror simptomning namoyon bo'lishiga va ma'lum bir darajada organizmning reaktivligiga ko'ra gradasion raqamli qiymatga ega bo'lgan standart shkala bo'yicha amalga oshiriladi.

Grafikdagi indekslarning dinamikasi kasallikning kechishini va davolash samaradorligini baholash imkonini beradi. Bunda matematik usul kasallik og'irlik darajasini ob'yektiv aniqlashga yordam beradi, konservativ terapiya yoki operasiyadan oldingi tayyorgarlik samaradorligini o'z vaqtida baholash imkonini beradi.

Sepsisning rivojlanish chastotasini va sepsisga bog'liq organlar yetishmovchiligini aniqlash uchun 1991 yilda AQSHda (Chikago) pulmonologlar va intensiv terapiya shifokorlarining kyelishuv konferensiyasida asos qilib olingen R.C.Bone ning sepsis tasnifi qo'llaniladi. O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklarining asorati sifatida tasdiqlangan sepsis tashxisi kelishuv konferensiysi tomonidan taklif qilingan klinik-patogenetik belgilar asosida qo'yiladi.

Bemor ahvolining og'irligini balli tizim asosida bir vaqtning o'zida baholashda sepsis (yallig'lanishga tiziqli javob) kyechishining kelishilgan tushunchasi bemor guruhlarini tasodifiy ajratish (randomirlash) imkonini beradi.

Deyarli barcha bemorlarda balg'amli yo'tal, vazn yo'qotish va holsizlik qayd etiladi. Balg'am miqdori bir kunda 20-30 ml dan 500 ml gacha o'zgarib turadi. Jarayon sepsis sindromi bilan asoratlangan bemorlarda balg'am miqdori 100 ml dan oshishi mumkin. Gangrenoz jarayonlarda va septik shok yoki og'ir sepsis bo'lganda balg'am 100% yomon hidga ega bo'ladi.

Ko'krak qafasidagi og'riqlar 8-9% hollarda va, odatda, o'tkir shaklli bemorlarda plevral asoratlar mayjud bo'lganda paydo bo'ladi.

Remissiya bo'lgan bemorlarda harorat reaksiysi, odatda, subfebril bo'lib, Sepsis Sindrom rivojlanganda  $38-38,5^{\circ}\text{C}$  oralig'ida o'zgarib turadi. TYAJSda (tizimli yallig'lanishning javob sindromi) harorat  $38-39,5^{\circ}\text{C}$  oralig'ida qayd etiladi. Titrash va haroratning yuqori ko'tarilishi ko'pincha TYAJS va Sepsis Sindromda kuzatiladi.

### **Davolash tamoyillari**

O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolashda asosiy qoida erta va adekvat endobronzial yoki transtorakal drenajlash va o'pkadagi yiringli-nekrotik o'choqni sanasiya qilish hisoblanadi.

SARS- COV-2 bilan kasallangan bemorlarda O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari etiologiyasida aerob va anayeerob mikroblar assosiasiysi asosiy rol o'ynashidan kelib chiqqan holda, antibakterial terapiya dastlab kombinasiyalangan holda amalga oshiriladi.

Antibakterial-detoksikasion davolashning birinchi bosqichi o'tkir davrda o'pkadagi yiringli-nekrotik o'chojni yetarli darajada drenajlash va sanasiya qilish fonida amalga oshiriladi va tibbiy muassasaning arsenalida mavjud bo'lgan barcha vositalardan, mos ravishda, muayyan holatda ko'rsatma bo'ladigan vositalardan foydalanishni nazarda tutadi. Davolashning birinchi bosqichi fonida O'pkaning Norespirator Faoliyati Yetishmasligini korreksiyalashga yo'naltirilgan davolashning keyingi bosqichini ulab ketish kerak. Bunda uning darajasini aniqlash juda muhim, chunki o'tkaziladigan davolashning keyingi taktikasi unga bog'liq bo'ladi.

O'pkaning norespirator funksiyasi yetishmovchiliginining kompensasiyalangan darajasida umumiy dori-darmonli terapiya oqsilli-sintetik kuchaytiruvchi vositalarni (OSKV) qo'shish bilan to'ldiriladi.

Buning zaruriy sharti anabolik maqsadda ularni qo'llashning yuqori samaradorligi, metabolik jarayonlarning muvozanatiga faol ta'sir qilishi bo'ldi, ularning buzilishi biz tomonimizdan tajribada isbotlandi. Eng oqilona oqsilli-sintetik kuchaytiruvchi vositalardan biri albumin + retabolil kompleksi hisoblanadi. Bir kunda kamida 100 ml 10% albuminni venaga tomchilab yuborish, retabolilni har 3 kunda 1 marta mushak ichiga yuborish tavsiya etiladi.

Ham o'pkada, ham umumiy organizmda jiddiy metabolik o'zgarishlar rivojlanganda vaziyat O'O'YDKni konservativ davolash usullarining nomukammalligi sababli og'irlashadi, ular orasida dorilarni venaga yuborish yo'li yetakchi hisoblanadi.

Reologik preparatlarni o'z ichiga olgan dori-darmonlarni venaga yuborish rejimi, birinchi navbatda yuqorida ko'rsatilgan, asosan organizmnинг toksinlar va infeksiyalarni markaziy qon oqimiga kirishini oldini olishga qaratilgan va shu bilan intoksikasiya va sepsisni kamaytiradigan himoya reaksiyalari hisoblangan mikrosirkulyasiya buzilishlarini korreksiyalashni nazarda tutadi. Tabiiyki, SARS-COV-2 o'tkazgan bemorlarda keng tarqalgan O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari bo'lgan bemorlarni kompleks davolashda iloji boricha yiringni tezroq evakuasiya qilish, destruksiya o'chog'ini yetarli darajada sanasiya qilish kerak. Bunday sharoitda o'choq mikrotomirlarining ochilishi intoksikasiya va septisemianing rivojlanishi bilan birga kechishi mumkin emas. Mahalliy jarrohlik aralashuvi va dori-darmonlarni arteriyaga yuborish masalalarini kompleks hal qilish tufayli zararlangan hududda dori vositalarining yuqori konsyentrasiyasini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

O'pkaning Norespirator Faoliyati Yetishmasligiga qarab asosiy va bazis dori vositalarini kiritishning yangi sxemasi ishlab chiqildi, ya'ni: birinchi bosqichlarda mikrosirkulyasiyani yaxshilaydigan dorilarni kiritish, chunki ular ishtirokisiz qo'llaniladigan dorilar zararlanish o'chog'iga yetib bormaydi va

arterio-venulyar shuntlar orqali umumiy qon oqimiga tushib, organizmdan chiqarib yuboriladi. Keyin biz zaharli metabolik mahsulotlarni, mikroorganizmlarning toksinlarini va yallig‘lanishning ortiqcha mediatorlarini evakuasiya qilish uchun detoksikasion preparatlarni yubordik va antibakterial dorilarni bolyusli yuborishni qo’shdik. Ikkinchchi bosqichda (3-4 kun) mikrosirkulyasiyaning tiklanish va o‘pka to‘qimalarining antibakterial preparatlar bilan to‘yinish fonida o‘tkazilayotgan kateterli terapiyaga oqsilli-sintetik kuchaytiruvchi vositalarni (albumin, alvezin va boshqalar) qo’shdik.

Davolash antibakterial preparatlarni 2-3 ta kombinasiyada bolyusli yuborishni o‘z ichiga oladi. Bunda syefalosporinlar (syeftriakson, lendasin, fortum, rosyefin) va aminoglikozidlar (amikasin, amikin, gentamisin, netromisin) birinchi kuni yuqori zarbali dozada arteriya ichiga buyurildi, chunki bakterisid ta’sirga antibiotikning qondagi konsyentrasiyasi o‘rtacha terapevtik dozadan 2-4 baravar yuqori bo‘lganda erishiladi. Keyinchalik antibiotikli terapiya bakteriogramma ma’lumotlariga qarab korreksiyalanadi. Bugungi kunga kelib, o‘pka destruksiyasining rivojlanishida noklostridial anaerob mikroorganizmlarning roli shubhasiz, shuning uchun metronidazol (metrogil, efloran, klion) kuniga 3000 mg gacha qo’llanildi.

SARS-COV-2 o‘tkazgan O’pkaning O’tkir Yiringli Destruktiv Kasallikkani bilan og‘igan bemorlarda O’pkaning Norespirator Faoliyati buzilishlarini arteriyaga va venaga yuborish orqali kompleks korreksiyalashning original usullarini ishlab chiqish va tadbiq etish, infeksiyaga va yallig‘lanishga qarshi kurash kateterli terapiya muddatini qisqartirish va yiringli-destruktiv jarayonni chegaralash jarayonini tezlashtirish, to‘liq va klinik sog‘ayish chastotasini oshirish, surunkaliga o‘tish va o‘lim ko‘rsatkichini kamaytirish imkonini beradi.

Subkompensasiyalangan O’pkaning Norespirator Faoliyati Yetishmasligi da korreksiyalash o‘z ichiga oqsilli-sintetik kuchaytiruvchi vositalarni (albuminning 10%li eritmasi 100-200 ml, alvezin) arteriyaga va bir vaqtning o‘zida retabolilni mushak ichiga yuborishni, kuniga 150 mg polien yoki polien-eksta, qattiq yog‘lar, 40% etil spirtni og‘iz orqali qabul qilishni oladi.

Birinchi bosqichda asosiy bazis eritmalar ryeologik (ryeopoliglyukin, ryeoglyuman) va dezintoksikasion (gemodez) eritmalar, ikkinchi bosqichda – OSKV (albumin, alvezin) va glyukozali-vitaminli aralashmalar (5%li glyukoza eritmasi + 10 ml 5%li askorbin kislotasi eritmasi) bo‘ldi.

Dekompensasiyalangan O’pkaning Norespirator Faoliyati Yetishmasligi da medikamentoz davolash kompleks bo‘lishi va o‘z ichiga arteriya va vena ichiga kateterli terapiyani olishi lozim, bunda vena tomirlarini kateterlash yuqori kovak vena tizimining markaziy venasi orqali amalga oshiriladi.

Ushbu davolashni amalga oshirishning muhim qoidasi:

- OSKV (aminokislotalar aralashmalar) va energiya manbalari (uglevodlar) va plastik materialni (yog'li emulsiyalar) bir vaqtida yuborish;
- venaga yuboriladigan oqsilli-sintetik kuchaytiruvchi vositalar va uglevodlar va yog'lar ko'rinishidagi ichki oqsil bo'limgan energiya nisbati quyidagicha bo'lishi kerak: kiritilgan azotning 1 g uchun 150-180 oqsil bo'limgan kaloriya.

Azot va oqsil bo'limgan kaloriya balansiga rioya qilinmaganda quyidagi asoratlar: gipepglikemiya, karbonat angidrid ishlab chiqilishining oshishi (gipepkapniya), kiritilgan azotli aminokislotalarni organizm tomonidan o'zlashtirilmasligi va uni siyidik orqali muqarrar yo'qotilishi bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan asoratlarning oldini olish uchun biz ichki kateter terapiyasiga qo'shimcha - spirlarni (etil spiriti, sorbitol, ksilitol) qo'shishni taklif qildik.

Kaloriya qiymati bo'yicha spirtlar uglevodlardan ustunlik (7,1 kkal/l) qiladi. Ular organizmda oksidlanib, asetyl koenzim A ga aylanadi.

Ushbu usulning ijobiy ta'siri:

1. Yaqqol darajada ifodalangan azotni tejash effekti.
2. Sedatasiya.
3. Analgyeziya (og'riq qoldirish).
4. Yurak-qon tomir tizimini tonuslash.
5. O'pka ventilyasiyasini kuchaytirish.
6. Ko'pikli o'chirish effektni ko'rsatish.

Birinchi bosqichda davolash bir kunda 500 ml gacha bo'lgan hajmdagi yog' emulsiyali preparatlarni 1 daqiqada 12-15 tomchi tezlikda iliq shaklda venaga yuborishni o'z ichiga oladi.

Keyinchalik ushbu tizimga uglevodlar bilan birga 33-35% li etil spiriti eritmasi infuziyasi 0,1 g/kg/soat tezlikda, umumiy kunlik doza tana vazniga 1 g/kg hisobida qo'shiladi.

Bunda shuni esda tutish kerakki, etil spirtini glyukoza bilan birga yuborish uning organizmdagi oksidlanish tezligini oshiradi, bu esa mastlik hissi, taxikardiya kabi nojo'ya ta'sirlarni oldini oladi.

COVID-19 o'tkazgan O'pkaning O'tkir Yiringli Destruktiv Kasalliklari bilan og'igan bemorlarda O'pkaning Norespirator Faoliyati buzilishlarini korreksiyalashning original usullarini ishlab chiqish va tadbiq etish, infeksiyaga va yallig'lanishga qarshi kurash yiringli-destruktiv jarayonni chegaralash jarayonini tezlashtirish, to'liq va klinik sog'ayish chastotasini oshirish, surunkaliga o'tish va o'lim ko'rsatkichini kamaytirish imkonini beradi.

## O'tkir o'pka abssessi

O'tkir o'pka abssessi (xo'ppozi) - yiringli-destruktiv jarayon butun o'pkani egallaydigan o'pka gangrenasidan farqli o'larоq, o'pka to'qimalarida chegaralangan yiringli-destruktiv jarayon hisoblanadi. Abssessning rivojlanishi gangrenadan farqli o'larоq, ko'pincha organizmning yaqqol himoya reaksiyasini ko'rsatadi, gangrenada esa yallig'lanish jarayoni organizmning kuchsiz reaktivligi yoki areaktivligi fonida kechadi.

### Yuzaga kelish yo'llari, rivojlanish mexanizmlari

Yiringli o'pka kasalliklarining sabablari va rivojlanish mexanizmlari juda xilma-xildir. Bunda ushbu holatlarning rivojlanishiga yordam beradigan bir qator omillar mayjud. O'tkir yiringli o'pka kasalliklarining yuzaga kelish quyidagilardir:

1. Bronxogen (obturasiya, aspirasiya) – abssess paydo bo'l shining asosiy sababi (90%gacha), odatda, bronxni yot jism, o'sma, chandiqli o'zgarishlar bilan to'sib qo'yilishi bilan bog'liq.
2. Tromboembolik (mikroblи va aseptik) – sepsis, O'ATE.
3. Pnevmoniyadan keyingi.
4. Jarohatlanishdan keyingi – o'pka to'qimasi va bronxial daraxtning yorilishi (jarohati) oqibatida o'pka to'qimasiga qon quyilishi.
5. Boshqa kelib chiqishlar (jarayonning qo'shni a'zolardan o'tishi)

Ko'pincha abssessning rivojlanish mexanizmi quyidagi ketma-ketlik bilan ifodalanadi:

1. Nafas olish yo'llari o'tkazuvchanligining buzilishi. Bu omil barcha o'pka kasalliklarining rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. O'tkazuvchanlikning buzilishi balg'am, qon, o'sma, yot jism tufayli yuzaga kelishi mumkin. Aynan bronxlardagi drenajlash funksiyasining buzilishi abssess va gangrena rivojlanishiga olib keladi.
2. O'pka parenximasidagi o'tkir yuqumli yallig'lanish jarayoni, u o'z navbatida o'pka to'qimalari va bronxial daraxtning shishishiga olib keladi, buning natijasida bronxial drenaj buziladi.
3. O'pka to'qimalarining yallig'lanish sohasidagi mikrosirkulyasiyaning buzilishi. Bu omil ko'pincha infarkt-pnevmoniyada, ya'ni o'pka to'qimalari nekrozi zonalarida yiringli jarayon boshlanganda birinchi o'ringa chiqadi.

Natijada patologik jarayon rivojlanadi, u og'irlashib, nafas olishning og'ir buzilishlariga, metabolik kasalliklarga va h.k. larga olib keladi.

O'pka to'qimalarining bronxogen, gematogen yoki limfogen infeksiyalanishi parenxima va kichik bronxlarning yallig'lanishini keltirib chiqaradi. Spazm, shish yoki shilliqli obturasiya tufayli kichik bronxlar o'tkazuvchanligining buzilishi o'pka sohalarining atelektaziga olib keladi. Yallig'lanish natijasida to'qimalarining infiltrasiysi va rivojlanib boruvchi shishishi kichik qon tomirlar va kapillyarlarning yallig'lanish infiltrati bilan siqilishiga olib keladi, bu o'pkaning yallig'langan havosiz hududida qon aylanishining buzilishi bilan birga kechadi. O'pka to'qimalarida qon aylanishining buzilishi mikroblar hayot faoliyati mahsulotlarining toksik ta'siri, kapillyarlar devorlarining tuzilmaviy shikastlanishi bilan kechadigan yallig'lanish qon aylanishi, nerv regulyasiysi va o'pka to'qimalarining trofizmi o'zgarishi tufayli yuzaga keladi. O'pkadagi ushbu mexanizmlar, shuningdek, mayda tomirlar va kapillyarlarning siqilishi natijasida qon aylanishi keskin sekinlashadi, o'pka parenximasini hududlarida nekrozlar paydo bo'ladi, qon tomirlarning stazi va trombozi kelib chiqadi. O'pkaning o'lgan joylariga obturasiyalangan bronx, yuqori nafas yo'llari va og'iz bo'shlig'idan limfogen yoki gemitogen yo'l bilan patogen mikrofloraning bevosita kirib borishi o'lgan o'pka to'qimasining yiringlashiga yoki chirishli parchalanishiga olib keladi. Nekroz yoki yiringli chirish elementlarining ustunligi kasallikning o'pkaning absessi yoki gangrenasi sifatida rivojlanishini oldindan belgilab beradi, bu ko'p jihatdan bemor organizmining reaktivlik holatiga bog'liq.

### Klinik kechishi va tashxisoti.

Klinik manzara 2 bosqichga bo'linadi:

#### 1. Abscess bronxga o'tguncha bo'lgan bosqich:

Ushbu bosqichga pnevmoniyaning klinik manzarasi xos:

- Tana haroratining keskin ko'tarilishi ( $39-40^{\circ}\text{C}$  gacha), ba'zan ter quyilishi bilan,
- Chuqur nafas olganda ko'krak qafasida og'riq,
- Quruq yoki kam miqdordagi balg'amli yo'tal, ba'zan yo'tal vaqtida qon tuflash kuzatiladi.

Bundan tashqari, anamnez yiqqanda absess rivojlanishiga yordam beruvchi omillarni aniqlashga e'tibor berish kerak (aspirasion yo'l, ko'krak qafasi jarohati).

Fizikal tekshiruv usullari:

- perkutor tovushning qisqarishi;
- nafas olishning zaiflashishi (zararlangan o'pka ustida nafas olish qattiqlashadi, bronxialgacha),

- ko'krak qafasi shikastlangan yarmining nafas olishda kechikishi, agar o'pka to'qimalarining shikastlanish hajmi sezilarli bo'lsa;
- ovoz titrashining kuchayishi,
- xirillash va krepitasiyaning paydo bo'lishi ko'rsatadi.

Ba'zida Kryukov simptomi kuzatiladi (abssess hosil bo'lgan ko'krak qafasi maydonini perkussiya qilish va bosish paytida og'riq). Agar abssess chuqur joylashgan bo'lsa, fizikal ma'lumotlar kam bo'lishi mumkin.

Asosiy diagnostika usuli rentgenogramma bo'lib, unda yumaloq zikh soya shakllanganligi qayd etiladi. Kompyuter tomografiyasini tashxisni tasdiqlaydi.

FBS da byekilib qolgan bronxni topish mumkin.

## 2. Abssess bronxga yorib o'tgandan keyin:

Abssess bronxga o'tganda bemorlarda "og'iz to'lib" yiringli balg'am ko'p ajraladi, tana harorati normaga tushishi mumkin. Bemorning ahvoli og'irligicha qolishi mumkin. Yiringning bronxial daraxt orqali o'tishi yiringli bronxitning rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bunda uzoq vaqt davomida balg'am ko'p miqdorda oqadi.

O'pka abssessida balg'am yoqimsiz hidga ega bo'lib, bankada turganda u uch qatlama bo'linadi. Pastki qismi yiringli, o'rtasi seroz suyuqlikli va yuqori qismi ko'pinkli bo'ladi. Ba'zan balg'amda o'zgargan o'pka to'qimalarining kichik bo'laklarini (o'pka sekvestrlari) ko'rish mumkin.

Fizikal tekshiruvda

- perkutor tovush qisqarishining yo'qolishi, hatto timpanit paydo bo'lishi mumkin, ayniqsa abssess katta bo'lsa,
- auskultasiyada turli o'lchamdag'i nam xirillashlar bo'ladi,
- auskultasiyada amforik nafas paydo bo'lishi mumkin.

Ryentgenda zikh soya o'rnida suyuqlik darajasi bo'lgan yumaloq soya paydo bo'ladi. Agar olib ketuvchi bronx yana to'lib qolsa intoksikasiya klinikasi yana qaytdi.

O'pkada bir nechta abssesslar (gangrena) bo'lganda bemorlarda yiringli balg'amning ko'p miqdorda oqishi bilan sezilarli intoksikasiya sindromi kuzatiladi. Bunda rentgenda gorizontal suyuqlik darajasi bo'lgan bir nechta bo'shliqlar qayd etiladi. Bu holat organizm reaktivligi past bo'lganda rivojlanadi va biror bo'lak yoki butun o'pkaning gangrenasiga olib keladi. Bunda auskultasiyada nam, katta o'lchamli xirillashlar qayd etiladi, bemorlarda yo'tal, odatda, balg'amsiz bo'lib, ular tez ozib ketishadi.

Perkussiyada o'pkaning sezilarli qismida perkussiya tovushining qisqarishi qayd etiladi. Qorin palpasiyasida taloq va gepatomegaliya qayd etilishi mumkin.

**O'tkir o'pka yiringlashining asoratlari.**

O'tkir o'pka absessi va gangrenasining asoratlari:

1. asosiy va eng og'ir asorat - absessning plevra bo'shlig'iga o'tishi va plevra empiyemasining shakllanishi, ba'zida pnevmotoraks,
2. qon tuflash - odatda, absessning bronxial daraxtga kirib borishi natijasi bo'lib, asoratdan ko'ra ko'proq xavfsiz kechish belgisi sifatida qarash mumkin.
- 3.o'pkadan qon ketishi - ba'zi hollarda absess yorilishi fonida rivojlanadi, ba'zida tezkor jarrohlikni talab qiladi,
- 4.bronxial daraxtning zararlanmagan joylariga yiringning so'riliши va yangi absesslarning paydo bo'lishi;
5. uzoq organlarda, ko'pincha miyada absesslarning shakllanishi.

Bundan tashqari, yiringli-yallig'lanishli jarayonning yiringli-rezorbтив isitma va sepsis kabi umumiyo ko'rinishlarini asoratlarga kiritish mumkin.

Yiringli-rezorbтив isitma - yiringli, anaerob yoki chirigan infeksiyaning mahalliy o'chog'idan bakterial toksinlar va to'qimalar parchalanish mahsulotlarining so'riliши natijasida yuzaga keladigan holat. Asosiy simptom - bu isitmali holatga xos bo'lgan o'zgarishlar bilan tana haroratining oshishi. Yiringli-rezorbтив isitmaning og'irlilik darajasi infeksiya o'chog'inining kattaligi, og'irligi, uning sog'lom to'qimalardan chegaralanishi va toksik mahsulotlarning tashqariga chiqishi ehtimoli bilan belgilanadi. Cheklangan yiringlashda (absessda) yiringli-rezorbтив isitma ko'pincha o'rtacha, o'pka gangrenasida – sezilarli bo'ladi. Harorat - 39°C gacha va undan yuqori, kunlik harorat o'zgarishi 1°C gacha. Ozg'in bemorlarda yiringli-rezorbтив isitma 38°C va undan past haroratda ham kechishi mumkin. Yiringli-rezorbтив isitma uchun, sepsisdan farqli o'laroq, umumiyo buzilishlarning mahalliy belgilarga mos kelishi odatiy holdir; mahalliy belgilarning kamayishi isitmali o'zgarishlarning zaiflashishiga olib keladi, mahalliy jarayonning kuchayishi darhol yiringli-rezorbтив isitmani kuchaytiradi. U uzoq vaqt davom etsa, kaxeksiyaga va bemorning o'limiga olib keladi.

Sepsis. Yiringli jarrohlikning ajralmas qismi bo'lib, o'pka absessi jarrohlik sepsisi rivojlanishining asosiy sabablaridan biridir.

#### **Tashxisot va differensial tashxisot.**

O'pkaning o'tkir absessi va gangrenasi tashxisotida klinik va fizikal ma'lumotlar, odatda, 2-o'ringa o'tadi. O'pka kasalliklarini tashxislashning asosiy usuli rentgen-tashxisot hisoblanadi. Jarrohlik o'pka kasalliklarining rentgen tashxisotida nafaqat patologik o'choqning mavjudligi, balki uning joylashuvini ham aniqlash juda muhimdir. Shuning uchun o'tkir o'pka yiringlashining diagnostikasi va differensial diagnostikasi uchun an'anaviy rentgenografiya yoki rentgen kompyuter tomografiyasi bilan kamida 2 ta proyeksiyada tekshiruv o'tkazish kerak. Agar zaruriyat bo'lsa, bronxografiya, liniyalı tomografiyadan ham

foydalananish mumkin.

O'pka yiringlashining rentgen manzarasi ko'plab omillarga bog'liq, masalan, yuqumli jarayonning bosqichi, patologik jarayonning tarqalganligi, bronxial daraxt bilan aloqasi va boshqalar. Avvalo, patologik jarayon qayerda joylashganganligini o'pkadami yoki o'pkadan tashqaridami, aniqlash kerak. O'pka parenximasida joylashganda, keyingi bosqichda patologik o'choqlarning soni (bitta yoki ko'p), tarqalganligi (bir tomonlama - ikki tomonlama), hajmi, shakli, tashqi konturlarning aniqligi, tuzilishi (bir xil - bir xil emas), yorug' joylarning mavjudligi (o'pka destruksiyasiga xos) aniqlanishi kerak.

Shunday qilib, bronxial daraxtga kirishdan oldin o'tkir o'pka absessi uchun quyidagilar xarakterli: o'pka to'qimalarining aniq kontursiz zinchlashishi aniqlanadi, soya bir xil, yuqori intensivlik, yumaloq, yorug' joylarning mavjud emasligi.

Absess bronxga o'tib ketgandan so'ng, odatdagи rentgen tasvirda suyuqlik darjasи aniqlanadigan yumaloq soya aniqlanadi. Absessning o'lchами bronx obturasiyasi darajasiga qarab sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Gangrenada o'pka ko'p zararlanadi. Rentgenogrammada o'pkada bir nechta kichik bo'shliqlar aniqlanadi, ular keyinchalik birlashib, kattalashadi. Bo'shliqlar, odatda, ko'p kamerali bo'lib, bir nechta suyuqlik darajasiga ega bo'ladi, rentgen-kompyuter tomografiyasida bo'shliqlarda sekvestrlar mavjudligi ham aniqlanishi mumkin.

Fibrobronkoskopiya. Bu o'pkaning o'tkir yiringlashida majburiy diagnostik-davo usuli hisoblanadi. Ushbu tadqiqot usuli nafaqat patologik jarayon rivojlanishining sababini, uning joylashishini aniqlashga, balki bronxial daraxtni sanasiya qilishga ham imkon beradi.

Bemorning ahvolini to'liq baholash uchun spirografiya ko'rsatkichlarini, qondagi gaz ko'rsatkichlarini ham baholash kerak, bu nafas olish yetishmovchiligi darjasи haqida ma'lumot beradi.

Birinchi navbatda o'pka sili, parazitar o'pka kistalari bilan differensial diagnostika o'tkazilishi kerak.

### **Davolash yondashuvlari tamoyillari, jarrohlik davolashga ko'rsatmalar, aralashuv turlari**

Davolash usullarining prinsiplari quyidagilardan iborat:

1. Absessni drenajlash
2. Samarali etiotrop terapiya
3. Organizm qarshiligini oshirish
4. Intoksikasiyani bartaraf etish
5. Rasional xirurgik davo.

Drenajlash. O'pkaning o'tkir absessi va gangrenasida drenajlash deganda ko'pincha zararlangan o'pkadan yiringli ajralmani nafas olish yo'llari orqali olib

tashlash tushuniladi, absessni teri orqali drenajlash bundan mustasno.

Adekvat drenajlash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- bronxoskopiya va bronxial daraxtning sanasiyasi yiringli o'pka kasalliklari uchun asosiy va eng muhim terapeutik va diagnostik usul hisoblanadi. Samarali va o'z vaqtida o'tkazilgan sanasion bronkoskopiya kasallik rivojlanishining sababini bartaraf etish va jiddiy asoratlardan, shuningdek murakkab jarrohlik aralashuvlardan qochish imkonini beradi.

- postural drenaj - pozision drenaj. U ham davolashning muhim qismi hisoblanadi. Sog'lom tomonga yoki boshni osiltirib yotish o'pka to'qimasidan yiringni yaxshiroq chiqishiga yordam beradi.

- abssesslarni teri orqali tashqi drenajlash. Ushbu turdag'i aralashuv bajaruvchi shifokordan tajriba talab qiladigan usuldir. Ushbu manipulyasiya uchun zaruriy shart - bu abssessning periferik joylashuvi va bu sohada pariyetal va vissyeral plevra o'rtaida chandiqli jarayonning mavjudligi.

- transbronxial kateterizasiya. Bu nafaqat patologik ajralmani evakuasiya qilish, balki abssess bo'shlig'ini antibiotiklar va antisepistiklar bilan yuvish imkonini beradi.

- kombinasiyalangan usul (teri orqali tashqi drenajlashni transbronxial kateterizasiya bilan birlashtirish).

Samarali etiotrop terapiyaga abssesslar tarkibini, bronxial tarkibni ekish orqali mikroflorani va uning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash orqali erishiladi. Bundan tashqari, antibakterial vositalarni tayinlash uchun empirik sxema ham mavjud.

Organizm qarshiligini oshirish nafaqat vitaminli va immunokorrektiv preparatlarni qo'llash orqali, balki bemorlarga kichik dozalardagi spirtili ichimliklarni qo'llash bilan yuqori kaloriyalı parhezlargacha bo'lgan adekvat ovqatlantirish orqali erishiladi.

Intoksikasiyani bartaraf etish klassik dezintoksikacion terapiya (masalan, majburiy diurez) va yuqoridagi usullar bilan, shuningdek, adekvat va o'z vaqtida bajarilgan xirurgik davo orqali erishiladi.

Rasional jarrohlik davo nafaqat oqilona hajmni, balki amalga oshirilgan davoning o'z vaqtida bajarilishini ham o'z ichiga oladi. Intoksikasiya, charchoq, gipoproteinemiya kuchayib borgan bemorda ba'zida uzoq muddatli operasiyadan oldingi tayyorgarliksiz radikal jarrohlik davo maqsadga muvofiq bo'ladi, bu intoksikasiya sindromini tezda bartaraf etishga imkon beradi.

### ***Operasiyaga (operativ davoga) ko'rsatma.***

O'tkir o'pka abssessi va o'pka gangrenasini jarrohlik yo'li bilan davolash masalasi konservativ davo samarasiz bo'lganda, yiringli-rezorbтив isitma belgilari kuchayganda, bemorning hayotiga xavf tug'diradigan vaziyatlar yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, operasiyalarni shartli ravishda shoshilinch va rejaliqa bo'lish mumkin.

*Shoshilinch jarrohlikka ko'rsatmalar:*

1. O'pkadan qon ketishi
2. Konservativ usullar bilan bartaraf etilmagan qonli balg'am
3. Abssessning plevra bo'shlig'iga yorib kirishi natijasida rivojlangan, pnevmotoraks bilan kechadigan piopnevmotoraks.

*Rejali operasiyalar uchun ko'rsatmalar:*

1. O'pka gangrenasi
2. Konservativ davoning samarasizligi

Jarrohlik turi va hajmi individual tanlanadi. Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish uchun ikkita asosiy turdag'i operasiyalar: o'pkani drenajlash va rezeksiya qilish amalga oshiriladi.

*Drenajlash operasiyalari.*

1. Plevra bo'shlig'ini drenajlash. Plevral drenaj bir vaqtning o'zida bir nechta muammolarni hal qiladi. Birinchidan, absess plevra bo'shlig'iga o'tib, pnevmogidrotoraks rivojlanishida plevral drenajlash uni to'xtatadi; ikkinchidan, plevra bo'shlig'iga quyilgan yiringni olib tashlaydi, bu o'tkir plevra empiyemasining rivojlanishiga to'sqintlik qilishi, shuningdek, yiringli-rezorbтив isitmani to'xtatishi mumkin; uchinchidan, o'pka to'qimasi yorilganda rivojlanishi mumkin bo'lgan plevra bo'shlig'iga qon ketishning mavjudligi yoki yo'qligi; to'rtinchidan, absessning o'tkir yorilishida plevra bo'shlig'ini o'z vaqtida drenajlash aynan bir bemor uchun yagona zarur operasiya bo'lishi mumkin.

2. Pnevmotomiya. O'pka absessini drenajlashning bu turi asosan tarixiy xususiyatga ega, ammo davolash usuli sifatida uni hozirgi davrda ham oqlash mumkin. Asosiy shart, absessni tashqi drenajlashda bo'lgani kabi, taxmin qilingan pnevmotomiya joyida vissyeral va pariyetal plevrانing mustahkam birkishi bo'lishidir.

3. Torakostomiya. Bemorning ahvoli og'ir va hayot uchun xavf yuqori bo'lganligi tufayli sezilarli intoksikasiya sindromi (yiringli-rezorbтив isitma) va yiringli o'choqni olib tashlash imkoniy yo'qligi (o'pka rezeksiyasi) haqida gap ketganda, torakostoma qo'yish juda samarali usuldir. Bunda torakotomiya amalga oshiriladi, yiringli o'choq ustidagi, ko'pincha 2-qovurg'aning rezeksiyasi amalga oshiriladi, plevra teriga tikiladi, bundan tashqari, agar zaruriyat bo'lsa va texnik jihatdan mumkin bo'lsa, torakostomaga yiringli bo'shliqning devorlari tikiladi. Torakostoma yiringli bo'shliqni muntazam ravishda sanasiya qilish imkonini beradi, bu yiringli-rezorbтив isitma va umuman yiringli jarayonni tezroq bartaraf etishga yordam beradi. Torakostomiyada infektion substrat va to'qimalarning detritini yanada samarali olib tashlash uchun yiringli yaraning tez tozalanishiga va granulyasiya o'sishiga yordam beradigan vakuumli bog'lamdan foydalanish mumkin. Davolash torakoplastika bilan tugaydi, hozirgi vaqtida torakoplastikaning

ko'krak qafasidagi deyarli har qanday nuqsonini yopish imkonini beruvchi ko'plab variantlari (shakllari) mavjud.

#### *O'pka rezeksiyasi.*

O'pka syegmentni, bo'lagini rezeksiya qilish yoki pulmonektomiya o'pka absesslari va gangrenasini davolashning radikal usuli hisoblanadi.

O'pka absesslarida rezeksiya hajmi patologik o'choqning joylashishiga, uning o'lchamiga va bronxial daraxt bilan bog'liqligiga bog'liq. Konservativ davo ta'sir etmagan kichik periferik absesslarni o'pkaning zararlangan segmentini anatomik rezeksiya qilish yoki hech qanday nafas disfunksiyasi bo'lmagan zararlangan hududni atipik rezeksiya qilish orqali olib tashlash mumkin.

Katta o'lchamli absesslar, odatda, bir nechta segmentlarni egallaydi va o'pka bo'lagini olib tashlash kerak bo'ladi. Ammo operasiya vaqtida plevra bo'shilg'ini, o'pkani va bo'laklararo yoriqlarni diqqat bilan qayta ko'rib chiqish kerak, chunki o'pka absessining rentgenogrammasi ostida yopiq plevrit (parakostal, paramediastinal yoki bo'laklararo) yashiringan bo'lishi mumkin.

Pulmonektomiya qilish to'g'risidagi qaror - yiringli o'pka kasalliklari jarrohligidagi eng qiyin qarorlardan birdir. Pulmonektomiya faqat butun o'pka yiringli zararlanganiga to'liq ishonch hosil qilingandan so'ng amalga oshirilishi kerak.

#### **O'tkir absessning oqibatlari:**

1) to'liq sog'ayish, bunda kasallikning klinik belgilari yo'qolishi bilan birga o'pka absessining rentgenologik belgilari ham yo'qoladi.

2) klinik sog'ayish, kasallikning klinik belgilari to'liq yo'qolishi bilan tavsiflanadi, ammo o'pka rentgenida quruq bo'shliq aniqlanadi.

3) klinik yaxshilanish: bemor kasalxonadan chiqariladigan vaqtida bemorning tana harorati subfebril bo'ladi; bemor oz miqdorda shilliq-yiringli balg'am ajratadi, rentgenda uning atrofida o'pka to'qimalarining infiltrasiyasi aniqlanadi.

4) yaxshilanishsiz: bu bemorlarda hech qanday remissiyasiz kasallikning o'tkir shakli surunkali shaklga o'tadi; intoksikasiya tez kuchayadi; o'pka-yurak yetishmovchiligi; parenximal organlarning distrofiyasi rivojlanadi.

5) o'lim.

#### *Surunkali o'pka absesslari.*

O'pkaning surunkali absessiga patologik jarayon 2 oy davomida tugamaydigan o'pka absesslari kiradi.

Tasnifi (Kolesnikov I.S., Vixrev B.S., 1973)

1. Kechishi bo'yicha:

- qo'zish
- remissiya

2. Kelib chiqishi bo'yicha:
  - o'tkir abssess oqibati
  - obturasion (shu jumladan, TBD yot jismari)
  - o'pkaning yot jismari bilan bog'liq (jarohatlanish)
  - «birlamchi»
3. Asoratlarining mavjudligi bo'yicha:
  - asoratlanmagan
  - asoratlangan
    - a. O'pka-plevra asoratlari (bronxoektaqlar, o'pkadan qon ketishi, plevra empiyemasi va piopnevmotoraks, ikkilamchi o'pka yiringlashlari)
    - b. O'pkadan tashqaridagi asoratlar (sepsis, ichki a'zolar zararlanishi (amiloidoz), suyak-bo'g'im zararlanishlari)
4. Tarqalganligi bo'yicha:
  - yakka-yakka va ko'plab
  - bir tomonlama va ikki tomonlama

### **Kelib chiqish yo'llari**

Kelib chiqishidan qat'iy nazar, surunkali o'pka abssesslarining rivojlanish yo'llari o'xshash.

Surunkali abssess paydo bo'lishining sabablari quyidagilardir:

- a) drenajlash uchun sharoitning yomonligi (drenajlanadigan bronx tor, egri-bugri);
- b) bo'shliqda sekvestrlarning mavjudligi;
- v) o'pkada bo'shliqning diametri 5 sm dan katta yoki ko'plab abssesslarning mavjudligi;
- g) abssessni tushishiga yo'l qo'ymaydigan plevra bo'shlig'idagi chandiqli jarayon;
- d) o'tkir abssess oqibatida quruq bo'shliqning yuzaga kelishi (bemorlarning 5-10% da);
- ye) organizmning yallig'lanish jarayoniga sust reaksiyasi

Abssess bo'shlig'ining yetarli darajada drenajlanmaganligi asosiy omil hisoblanadi, boshqa sabablar kamroq uchraydi, ammo surunkali abssess bo'shlig'ida sekvestrlarning mavjudligi 20-25% hollarda qayd etiladi va 5-10% hollarda quruq bo'shliq qoldig'idan surunkali abssess hosil bo'ladi.

Surunkali abssesslardagi asosiy qo'zg'atuvchilar o'tkir o'pka yiringlashidagi qo'zg'atuvchilar bilan bir xil. Biroq, bu mikroorganizmlar ko'p hollarda ko'pchilik antibiotiklarga chidamli bo'ladi. Bundan tashqari, ko'pincha antibiotikli terapiya

fonida zamburug'li zararlanishlar rivojlanadi.

Yiring sekin shakllanadigan abssesslarga, ayniqsa keksa va qari odamlarda, qandli diabet bilan og'rigan bemorlarda rivojlanadigan abssesslarga surunkali kechish xarakterlidir.

### **Klinik kechishi va tashxisoti**

Surunkali abssess bilan og'rigan bemorlarning ko'pchiligidagi kasallik o'tkir yiringlash jarayoni susaygandan keyin rivojlanadi, bu ko'pincha quruq qoldiqli bo'shliq paydo bo'lishiga olib keladi. Bir necha oydan keyin yoki undan kechroq, bunday sog'ayishdan so'ng, holsizlik paydo bo'ladi, vaqtiga vaqtiga bilan subfebril harorat, avval quruq, keyinchalik nam yo'tal kuzatiladi. Tana haroratining keskin ko'tarilishi, nafas olganda og'izdan yoqimsiz hidning kelishi va chirigan hidli balg'am, rentgenogrammada gorizontal suyuqlik darajasi yoki massiv gomogen soyaning aniqlanishi surunkali o'pka abssessi tashxisini qo'yish imkonini beradi. Bunda yuqori harorat va yiringli balg'amning ajralishi davom etadi. O'pka to'qimalarining destruksiyaligi bo'shlig'i va perifokal yallig'lanishli infiltrasiya turg'un saqlanadi.

Surunkali abssesslarning asoratlari (ikkilamchi bronxoektaziya, o'pkadan qon ketishi, septikopiyemiya, parenximatoz organlarning amiloid degenerasiyasi) odatda kasallikning qo'zish davrida va u uzoq davom etganda kuzatiladi.

Kasallik odatda qo'zish va remissiya davrining almashinishi bilan kechadi. Remissiya davrida tana harorati normal yoki subfebril, balg'am miqdori sezilarsiz bo'lishi mumkin, bemorlarning ahvoli qoniqarli deb hisoblanadi.

Qisqa vaqtadan so'ng (1-2 hafta) tana harorati yana ko'tariladi, yo'tal kuniga 500-600 ml yoki undan ko'p yiringli balg'amning ajralishi bilan kuchayadi. Kasallikning kuchayishi umumiy holsizlik, ishtahaning pasayishi, uyqusizlik, ko'krak qafasining tegishli yarmida og'riqlar bo'lishi bilan kechadi. Tinch vaqtida ham hansirash qayd etiladi, jismoniy zo'riqishda u kuchayadi. Tekshiruvda teri rangi oqarib ketgan bo'ladi, nafas olayotganda og'izdan yoqimsiz hid keladi, yuz shishgan bo'ladi. Uzoq davom etadigan abssesslarda pnevmoskleroz va ateletkaz rivojlanadi, bu ko'krak qafasi shaklidagi o'zgarishlarda namoyon bo'ladi: og'riqli tomonning orqaga cho'kishi, qovurg'alararo bo'shliqlarning tortilishi va qovurg' alarming bir oz yaqinlashishi, shuningdek, ko'krak qafasi kasal tomonining nafas olishda kechikishi kuzatiladi.

Barmoqlarning "baraban tayoqchalari" kabi deformasiyasi o'pkadagi surunkali yiringli jarayonning eng doimiy belgilardan biri bo'lib, bemorlarning 85-95%da kuzatiladi. Barmoqlarning qalinlashishi bilan birga, tirnoq plastinkalarining "soat oynasi" kabi deformasiyasiga e'tibor qaratiladi.

Uzoq muddatli o'pka abssesslarida kuzatiladigan surunkali yiringli

intoksikasiya ko'pincha suyak to'qimasi sklerozining rivojlanishi bilan bo'g'imlar va uzun naysimon suyaklarning shikastlanishiga olib keladi (Bamberger-Mari sindromi).

Fizikal tekshiruv juda xilma-xil manzara berishi mumkin. Bu abscessni bo'shalish darajasi bilan, plevrit kabi yondosh holatlarning mavjudligi bilan patologik o'choqning turlicha lokalizasiyasi bilan bog'liq.

*Laboratoriya diagnostikasi.* Surunkali yiringli intoksikasiya ushbu kasallikning o'ziga xos belgisi bo'lib, boshqa o'pka yiringlashlariga xos bo'limgan o'ziga xos belgilari bilan namoyon bo'ladi. Remissiya davrida ko'rsatkichlar normal qiyatlargacha yetishi mumkin. Qonning oqsil tarkibiga alohida e'tibor qaratish kerak. Qo'zish davrida gipoproteinemiya asosan albumin fraksiyasi hisobiga kuzatiladi. Remissiya davrida albumin va globulinlarning globulinlarga nisbatan nomutanosibligi tufayli disproteinemiya paydo bo'lishi mumkin. Surunkali yiringli-yallig'lanish jarayonida buyraklar faoliyatini nazorat qilish kerak. Umumiylah tahlil va Zimniskiy sinamasidagi albuminuriya, silindruriya kabi o'zgarishlar ichki a'zolarda amiloidoz rivojlanganligining belgisi bo'lishi mumkin.

*Instrumental tekshirish usullari.* Avval aytib o'tganimizdek, o'pka rentgenografiyasi kamida ikkita proyeksiyada amalga oshirilishi kerak, bu o'pkaning zararlanish darajasini aniqliq baholash imkonini beradi. Eng ma'lumot beradigan usul - bu kompyuter rentgen tomografiyasi bo'lib, unda turli xil davolash usullarining samaradorligini yuqori darajadagi aniqliq bilan taxmin qilish mumkin.

Surunkali abscess bilan og'rigan bemorni tekshirganda, bronkoskopiya qilish kerak, bronxografiya ko'rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi.

### Differensial diagnostika.

Surunkali o'pka absessining differensial diagnostikasi, birinchi navbatda, bronxoektaziya bilan o'tkazilishi kerak.

Kasallik o'ta rivojlangan bosqichlarda surunkali o'pka absesslari va bronxoektaziya o'rtasidagi aniq farqni aniqlash qiyin.

Asosiy farqlar: Bronxoektazlar, surunkali absesslardan farqli o'laroq, asosan yoshlarda uchraydi va erkaklar va ayollarda bir xil darajada keng tarqalgan.

1. Diqqat bilan to'plangan anamnez har doim bronxoektaziya xos bo'lgin holatlarni aniqlash imkonini beradi: bolalik davrida tez-tez uchraydigan pnevmoniya, qo'zishlar orasidagi davrda saqlanib qoluvchi bronxit.

2. Surunkali abscess bilan og'rigan bemorlarda qo'zish davrida kamdan-kam hollarda balg'am ko'p ajraladi, bu bronxoektaziya bilan og'rigan bemorlarga juda xos bo'lib, bronxoektaziyaning har bir qo'zishida, ayniqsa ertalab uyqudan turganda balg'am ko'p miqdorda ("og'iz to'lib") ajraladi.

3. Bronxoektaziyalı bəmərlarning balg'amida elastik tolalar juda kam uchraydi, surunkali absesslarda esa deyarlı doimo topiladi.

4. Surunkali absess bilan og'rigan bəmərlarda kasallikning davomiyligi ko'pincha uzoq bo'lmaydi, ammo navbatdagı qo'zish paytida holatning og'irligi va intoksikasiya ancha yaqqolroq bo'ladi, bronxoektaziyalı bəmərlarda, hatto o'pkaning katta qismii yoki butun o'pka egallanganda ham bəmər ko'pincha o'zini juda qoniqarlı his qiladi.

5. O'pka absesslari ko'pincha yuqori va pastki bo'laklarning orqa segmentlarida, ayniqsa o'ng tomonda joylashadi. Ko'pincha, yuqori bo'lak zararlanganda, yallig'lanish jarayoni qo'shni pastki bo'lakka ham o'tadi yoki aksincha. Ko'pincha surunkali absesslarda bo'laklar va segmentlarning qo'shma zararlanishlari qayd etiladi. Bronxoektaziyada o'pkaning pastki bo'laklari, shuningdek, o'rta bo'lak segmentlari ko'proq shikastlanadi. Shikastlanish deyarli har doim o'pkaning anatomik qismi - segment, bo'laklar bilan chegaralanadi va kamdan-kam hollarda o'pkaning qo'shni bo'laklariga tarqaladi.

6. Rentgenologik tekshiruvlar. Surunkali absess juda uzoq davom etganda ham bronxlarning keng tarqalgan zararlanishi yuz bermaydi va bronxogrammalarda katta, tartibsiz shaklli bo'shliqlar aniqlanadi. Bronxoektaziyada bronxlarning silindrsimon, xaltasimon va aralash kengayishi aniq ko'rindi. Bo'shliqlar rentgenologik tasvirini beruvchi kengaygan bronxlar ko'pincha to'g'ri konturga ega bo'ladi.

Surunkali o'pka absessining differensial diagnostikasi o'pka saratoni, sil kasalligi va yiringli o'pka kistalari bilan ham o'tkaziladi.

Surunkali absess va o'pka saratonining differensial diagnostikasida birinchi navbatda balg'am tahliliga e'tibor berish kerak (o'pka saratonida atipik hujayralarni aniqlash mumkin), bunda albatta periferik o'pka saratonining biopsiyali bronkoskopiyasi va rentgenologik tasviri talab qilinadi. Klinik jihatdan periferik saraton o'pka absessi bilan bir xil kechishi mumkin. Parchalanish aniqlangan periferik saratonni surunkalilik belgilari bo'lgan bo'sh absess bilan yanglishtirish mumkin. Bunda kasallikning anamneziga alohida e'tibor qaratish lozim: yuqori nafas yo'llarining infeksiyasi bilan bog'liq bo'limgan yashirin boshlanish, tana haroratining o'rtacha ko'tarilishi, ko'p miqdorda balg'am ajralishining yo'qligi, balg'am hajmi 100-150 ml, shilliqli, qon aralashmali bo'ladi.

Sil kasalligi bilan differensial tashxis qo'yish ham qiyin. Quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. anamnez,

2. jarayonning lokalizasiyasi: sil ko'pincha o'pkaning yuqori bo'lagi va 6 segmentni zararlaydi,

3. turli davomiylikka ega qo'shimcha sil o'choqlari bo'lishi mumkin;
4. balg'am ko'p bo'lmaydi, odatda hidsiz bo'ladi,
5. balg'ama sil mikobakteriyasining mavjudligi. Aktinomikozda balg'ama zamburug' misyeliysi va druzlari topiladi.

### Davolash

Surunkali o'pka abssessda konservativ davo operasiyadan oldingi tayyorgarlik bosqichi sifatida amalga oshiriladi. To'liq va turg'un davolanishga faqat zararlangan qismni yoki butun o'pkani olib tashlash orqali erishish mumkin. Bunday davolashning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- 1) yiringli intoksikasiyani kamaytirish va o'pkada yallig'lanish jarayonining qo'zishini bartaraf etish;
- 2) nafas olish va qon aylanish tizimlarining buzilgan funksiyalarini patologik jarayon bilan korreksiyalash, oqsil, suv-tuz, elektrolitlar buzilishi va anemiyani bartaraf etish;
- 3) organizmning umumiyligi immunologik qarshiligidagi oshirish.

Davolashning davomiyligi 2-3 haftani tashkil etadi. Ushbu davrda surunkali abssess kechishida remissiyaga erishish mumkin yoki konservativ usullar samarasiz bo'ladi - bu holda konservativ davoni davom ettirish maqsadga muvofiq emas.

Operasiyadan oldingi tayyorgarlikda asosiy e'tibor traxeobronxial daraxtni kompleks sanasiya qilishga qaratilishi kerak. Bronxosanasiya o'pka va traxeobronxial daraxtda yiringlash jarayonining qo'zishi bartaraf etilgunga qadar amalga oshirilishi kerak. Postural drenaj qo'llaniladi, antiseptiklar, antibiotiklar va fermentlar ingalyasiyasi, bronkoskopik sanasiya o'tkaziladi, dori-darmonlar intratraxyeal yuboriladi.

Surunkali abssess bilan og'rigan bemorlarda yiringli intoksikasiyani va qo'zishini bartaraf etish uchun *o'pka abssesslarini drenajlashni* qo'llash mumkin, ayniqsa abssess yakka holda va yuzaki joylashgan bo'lsa (Torakosyentez yordamida drenajlash, pnevmotomiya).

Ko'pincha *o'pka bo'lagi olib tashlanadi*, ammo yiringli jarayonning tarqalganligi tufayli ko'pincha pulmonektomiya zarur bo'ladi.

Bemor og'ir umumsomatik holatda bo'lganda torakoplastika o'tkazish bilan *abssess bo'shlig'ini tashqi drenajlash* mumkin.

Bundan tashqari, o'pka abssessining asoratlari haqida unutmaslik kerak. O'pkadan qon ketishi operasiya uchun mutlaq ko'rsatmadir. Qon ketish davom etganda, shoshilinch yoki tezkor operasiyalar amalga oshiriladi. Qon ketish

to‘xtaganda, operasiyani yaqin 8-12 soat ichida o‘tkazish kerak, ushbu vaqt ichida operasiya uchun ko‘rsatma anamnezida qon ketish bo‘lgan surunkali abscess bilan og‘rigan bemorlarda 40-50 ml hajmda qon ketishidir. Operasiya hajmi: o‘pkaning zararlangan joyini qon ketish manbai bilan rezeksiya qilish, shuning uchun operasiya intraoperativ bronkoskopiya bilan o‘tkazilishi kerak.

Plevral empiyema yondosh bo‘lgan surunkali abscessni xirurgik davolash o‘pkaning tegishli qismini rezeksiya qilish bilan empiyemani davolash tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladi.

Operasiyadan keyingi o‘lim hali ham 4-6% ga yetadi. Surunkali abscess bo‘yicha o‘tkazilgan o‘pka rezeksiyasidan keyingi asoratlari (o‘pka yurak yetishmovchiligi, plevra empiyemasi va bronxial oqmalar, qon ketish) tez-tez uchraydi va chastotasi 10-15% ni tashkil qiladigan o‘limning asosiy sababi hisoblanadi.

### ***O‘tkir plevra empiyemasi va piopnevmotoraks***

*Empiyema* – oldindan mavjud bo‘lgan bo‘shliqda yiringning to‘planishi.

*O‘tkir plevra empiyemasi* – bu vissyeral va parietal plevraning chegaralangan yoki diffuz yallig‘lanishi bo‘lib, plevra bo‘shlig‘ida yiring to‘planishi va yiringli intoksisasiya belgilari bilan kechadi va ko‘pincha nafas olish yetishmovchiligi kuzatiladi.

*Piopnevmotoraks* – bu etiologiyasi va patogenezi turlicha bo‘lgan yiringli-destruktiv o‘pka kasalliklarida rivojlanadigan, plevra bo‘shlig‘iga yiring va havoning o‘tishi bilan tavsiflanadigan va o‘tkir davrda xarakterli klinik manzaraga ega sindromdir.

### **Empiyemalar tasnifi**

- I. Plevra empiyemasi klinik kechishi bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:
  - a) O‘tkir (kasallikning davomiyligi 8 haftagacha).
  - b) Surunkali (kasallikning davomiyligi 8 haftadan uzoq).
- II. Ekssudat tabiatiga ko‘ra: a) yiringli;  
b) chirigan.
- III. Mikroflora xarakteri bo‘yicha:
  - a) maxsus (sil, zamburug‘li, ya’ni mikotik);
  - b) nomaxsus (stafilokokkli, diplokokkli, anaerobli va boshq.);
  - v) aralash mikroflorali.
- IV. Jarayonning tarqalishi bo‘yicha:
  - a) erkin empiyemalar: total (rentgenologik tekshiruvda o‘pka to‘qimasi ko‘rinmaydi), subtotal (faqat o‘pkaning cho‘qqisi ko‘rinadi);  
b) chegaralangan (shvart paydo bo‘lganligi sababli xaltalangan).

V. Chegaralangan empiyemaning joylashishi bo'yicha quyidagilar farqlanadi: a) devor oldida, b) bazal (diafragma va o'pka yuzasi orasida), v) interlobar (bo'laklararo egatda),

g) apikal (o'pka cho'qqisi ustida), d) paramediastinal (ko'ks oralig'iga tutash),

ye) ko'p kamerali, plevra bo'shlig'idagi yiringli to'planishlar turli darajalarda joylashgan va bir-biridan spayka bilan ajralgan;

VI. O'pkadagi empiyemaning sababi bo'lgan patologik jarayonning tabiatini bo'yicha:

a) parapnevmonik (empiyemaning pnevmoniya bilan birikmasi);

b) o'pkada destruktiv jarayon bilan birikmasi (o'pka absessi, gangrenasi);

v) metapnevmonik (abakterial parapnevmonik plevrit yiringlashi)

VI. Tashqi muhit bilan aloqa tabiatini bo'yicha:

a) yopiq, tashqi muhit bilan aloqa qilmaydi;

b) plevroorgan, bronxoplevral yoki plevrodermal oqma bilan ochiq empiyema.

### Epidemiologiya

Birlamchi va ikkilamchi plevra empiyemasi farqlanadi. Birlamchi plevral empiyemaning sabablari ko'pincha yopiq va ochiq ko'krak qafasi jarohatlari hisoblanadi.

Jarohatlanishdan keyin empiyema rivojlanishining sabablari:

1. Parenximaning sezilarli darajada shikastlanishi, bronxoplevral oqmaning mavjudligi yoki bronx o'tkazuvchanligining buzilishi bilan bog'liq o'pkaning turg'un atelektazi.

2. Ikkinchchi marta ochilgan pnevmotoraks

3. O'pka ichidagi va plevra ichidagi yot jismlar

4. Infeksiyalangan laxta holtdagi gematoraks

5. Qizilo'ngachning shikastlanishi

6. Ko'krak devori yumshoq to'qimalarining flegmonasi

7. To'sh suyagi, qovurg'alar yoki kurak suyagining paraplevral yiringli o'choqli osteomiyelitlari.

Ko'krak qafasi organlarida (o'pka, bronxlar, qizilo'ngach) o'tkazilgan operasiyalardan keyin rivojlanadigan postoperasion empiyema haqida unutmasligimiz kerak.

Ikkilamchi empiyemaning sabablari - o'pka va plevrani yiringli-yallig'lanish kasalliklari asoratlari: pnevmoniya, o'tkir va surunkali absesslar, o'pkaning yiringli kistalari, plevritlar, shuningdek yallig'lanish jarayonining qo'shni bo'shliqlardan o'tishi (diafragma osti absesslari, o'tkir xolesistit,

oshqozonning teshilgan yarasi). Kam hollarda empiyema o'pkaning yiringli yoki parazitar kistasining, parchalanayotgan o'smaning, spontan pnevmotoraksning asoratlari sifatida rivojlanishi mumkin.

Ikkilamchi plevra empiyemasi ko'krak qafasidagi jarohatning yiringlashida, qovurg'alar, umurtqa pog'onasi, to'sh suyagi osteomiyelitlarida, xondrit, limfadenit, mediastinit, perikarditda kontakt yo'li bilan ham rivojlanishi mumkin.

O'tkir plevral empiyema polietiologik kasallikdir. Etiologiyaga ko'ra maxsus, nomaxsus va aralash plevra empiyemalari farqlanadi.

*Maxsus plevral empiyema* sil mikobakteriyalari, zamburug'li EP (aktinomikotik, kandidomikotik, aspergillez), sifilitik plevrit tufayli yuzaga keladi.

*Nomaxsus plevral empiyemani* turli xil piogen yoki chirish mikroorganizmlari qo'zg'atadi. Boshqalarga nisbatan ko'pincha stafilokokklar topiladi - 77% gacha. Plevra bo'shlig'iadi yiringni bakteriologik ekishda 30-45% hollarda gr (-) mikroorganizmlar (ichak tayoqchasi, Pseudomonas aeruginosa, Proteus shtammlari) ajratib olinadi. 80% hollarda anaerob noklostridial flora (bakteroidlar, fuzobakteriyalar, peptokokklar, peptostreptokokklar va boshqalar) o'sadi.

### Klinik patofiziologiya.

Plevra to'qimalariga, so'ngra plevra bo'shlig'iga tushgan piogen bakterial flora ba'zi o'ziga xos xususiyatlarga ega javob yallig'lanish reaksiyasini keltirib chiqaradi.

Bakterial toksinlar o'zlarining ta'sirlovchi xususiyatlarini namoyon qiladi va plevra va qoplovchi endoteliy hujayraviy elementlarining o'limini keltirib chiqaradi. Plevranning keng yuzasida javob qon tomir reaksiyasi juda ko'p ekssudasiya shaklida namoyon bo'ladi.

Yallig'lanishning boshlang'ich bosqichida ekssudatning sezilarli qismi asosan pariyetal plevra tomonidan so'rildi, plevra yuzasida qolgan fibrin va dumaloq hujayrali infiltrasiya sababli shishadigan endotelial qoplari plevrani xira va g'adir-budir qiladi. Endoteliy qoplari yo'qolgan joylarda granulyasion to'qima rivojlanadi. Bu o'zgarishlar natijasida ekssudatning so'riliishi qiyinlashadi va plevra bo'shlig'i dastlab seroz, seroz-fibrinoz, so'ngra yiringli oqma bilan to'ladi.

Ekssudat plevra yuzalarini ajratmaydigan, ularni aloqada qoldiradigan joylarda ular orasida fibrinli chegaralovchi bitishmalar hosil bo'ladi, ular ko'pincha yiringli ekssudatning yuqori sathida joylashgan bo'ladi. Bunda yiringli ekssudat darajasi Damuazo-Sokolov chizig'ini hosil qiladi.

Ba'zi hollarda, bu bitishmalar plevra bo'shlig'ini ekssudat bilan alohida qismlarga bo'ladi, plevritning mahalliy va ko'p kamerali shakkllantiradi.

Proliferativ infiltrasiya bir tomonidan o'pkaning tutash joylariga, ikkinchi tomonidan ko'krak devoriga tarqaladi va hosil bo'lgan fibrinoz bitishmalarga ham

o'tadi. Keyinchalik bu infiltrasiya yiringli ekssudatni to'liq izolyasiya qilib, granulyasion va tolali biriktiruvchi to'qimalarga o'tadi, bu ekssudat so'rilib ketganda plevra bo'shlig'ining to'liq obliterasiyasiga olib keladi, keyinchalik sog'ayish kuzatiladi.

Kuchsizlangan organizmda chegaralovchi bitishmalar hosil bo'lmaydi va yiringli ekssudat asta-sekin butun plevra bo'shlig'ini to'ldiradi va diffuz plevritni hosil qiladi. Bunda o'pka ildizga qarab orqaga suriladi, ko'ks oralig'i a'zolari sog'lom tomonga siljiydi va diafragma tushadi.

Mahalliy yoki diffuz yiringli plevritda ekssudatda virulent infeksiya saqlanib qolsa, yallig'lanish jarayoni rivojlanadi, ba'zi kuzatuvlarda yiring ko'krak devori va teri ostiga o'tadi, boshqalarida u o'pka to'qimasidan o'tadi va bronx ichiga kiradi, ya'ni ichki bronxo-plevral oqma hosil bo'ladi, ushbu oqma orqali bermor yiring yo'taladi.

Ilgari bronx bilan aloqada bo'lgan o'pka absessining plevra bo'shlig'iga kirib borganda piopnevrmotoraks hosil bo'ladi.

Mikroblarning qorin bo'shlig'idan plevragna o'tishi limfa tomirlari va "lyuklar" (kengaygan limfa tomirlari) deb nomlanuvchi diafragmadagi yoriqlar, yoki gematogen yo'l orqali sodir bo'ladi.

### **Klinik kechishi.**

O'tkir empiyemaning klinik kechishi ko'plab omillarga, masalan, empiyemaning rivojlanish sabablari, yiringli jarayonning tarqalganligi, mikrofloraning virulentligi, organizm reaktivligi, konservativ va xirurgik davolashning o'z vaqtida va yetarli darajada o'tkazilganligiga bog'liq. Shu bilan birga, o'tkir empiyemaning turli shakllari juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega: kasallik o'tkir, harorat ko'tarilishi, titroq bilan boshlanadi, ko'krak qafasining kasallangan tomonida og'riqlar paydo bo'ladi, u chuqur nafas olganda kuchayadi, hansirash kuzatiladi. Harorat odatda yuqori bo'ladi va ba'zida, ayniqsa, chirituvchi va noklostridial anaerob infeksiyalarida gektik xarakterga ega bo'ladi. Harorat reaksiyasing bo'lmasligi odatda organizm areaktivligini (javob bermasligini) ko'rsatadi, ammo sepsisni istisno qilmaydi. Yo'tal paydo bo'ladi, ishtaha yomonlashadi. Yo'tal xurujlari tez-tez va uzoq muddatli, ko'p balg'amli bo'ladi, bu odatda, bronxoplevral oqma mavjudligidan dalolat beradi. O'tkir empiyemaning klinikasi ko'pincha tizimli yallig'lanishli javob sindromi va yiringli-rezorbтив isitma, keyinchalik sepsis rivojlanishi bilan kechadi.

Yiringli jarayonning tarqalganligiga ko'ra bermorlarda terining rangparligi va shilliq pardalarning sianozi qayd etiladi, ko'krak qafasi tekislangan qovurg'alararo bo'shliqlar bilan bochkasimon shaklni olishi mumkin. Bemorning pozisiyasi ko'pincha og'riqli tomonda bo'lib, bu nafas olish va og'riqni yengillashtiradi, ammo yaqqol nafas yetishmovchiligi bilan bermorlar ortopnoe

pozisiyani egallashlari mumkin.

### **Diagnostika.**

O'tkir plevral empiyemada *anamnez* cheklangan ahamiyatga ega. Oldingi patologiyani ko'rsatish (o'pka, qorin bo'shlig'i a'zolari jarohati, yallig'lanish kasalliklari va boshq.) ozgina qo'shimcha ma'lumot beradi.

